

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ
МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ
МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ
ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

мавзусидаги

**IV АНЪАНАВИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НАВОИЙ ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ
АЛИШЕР НАВОИЙ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ БИРЛАШМАСИ
НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

**АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ-
МАЪРИФИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ**

мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2021 йил 23-25 ноябр, Ўзбекистон, Навоий шаҳри)

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THE KHAKIMIYAT OF NAVOI REGION
(LOCAL GOVERNMENT)

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
REPUBLIC CENTER OF SPIRITUALITY AND ENLIGHTENMENT
ALISHER NAVOI INTERNATIONAL COMMUNITY ASSOCIATION
NAVOI STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

MATERIALS

of the IV traditional international-scientific conference on the theme

**THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE OF ALISHER
NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF
HUMANITY**

(November 23-25, 2021, Navoi, Uzbekistan)

ҲОКИМИЯТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
РЕСПУБЛИКАНСКИЙ ЦЕНТР ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА
МЕЖДУНАРОДНОЕ ОБЩЕСТВЕННОЕ ОБЪЕДИНЕНИЕ
АЛИШЕРА НАВОИ
НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАТЕРИАЛЫ

IV традиционной международной научно-практической конференции на тему

**МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В
ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ РАЗВИТИИ**

(23-25 ноября 2021 г., Узбекистан, г. Навои)

IV АНЪАНАВИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯНИНГ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ

- | | |
|-------------------|--|
| 1. К.Турсунов | Навоий вилоят ҳокими, раис |
| 2. Қ.Санакулов | НКМК бош директори, НДКИ ректори, раис муовини |
| 3. Н.Маҳмудов | ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти директори, аъзо |
| 4. Ш.Сирожиддинов | Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ректори, аъзо |
| 5. Б.Собиров | Навоий давлат педагогика институти ректори, аъзо |
| 6. Я.Душанов | Навоий вилоят ҳокими ўринбосари, аъзо |
| 7. С.Хужжиев | НавДПИ илмий ишлар бўйича проректор, аъзо |
| 8. У.Сатторов | Навоий Архитектура ва қурилиш коллежи директори, аъзо |
| 9. А.Аллабердиев | НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти факультети декани, аъзо |

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Бахтиёр Назаров	Академик
Наим Каримов	Академик
Низомиддин Маҳмудов	ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти директори, ф.ф.д., профессор
Абдулхамид Холмуродов	НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори
Нигора Муродова	НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори
Тоҳир Хўжаев	НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти
Ботир Зарипов	НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти
Насиба Ярашова	НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.ф.д (PhD)

МАСЪУЛ МУҲАРРИРЛАР

Иброҳим Ҳаққул	ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти бўлим мудири, ф.ф.д, профессор
Эргаш Очилов	ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти катта илмий ходими, ф.ф.н.доцент
Рано Юсубова	НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири, филология фанлари доктори (DSc)
Зариф Қувонув	НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси мудири, ф.ф.ф.д (PhD)

ТАҚРИЗЧИЛАР

Муслиҳиддин Муҳиддинов	Самарканд давлат университети профессори, ф.ф.д
Султонмурод Олимов	Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, ф.ф.н.

ўрганилмайди¹. Абжад ҳисобини ўрганиш ўзбек тилида илгаридан аббревиатура мавжуд деган хулосани ҳам беради. Аббревиатура эса тилшуносликда фақат XX асрда рус тилшунослигидан олинган деган илмий хулосалар берилган. Мазкур тиллардаги абжад ҳисоби, унинг ўзбек тарихий матнларида мавжудлиги эса мазкур лингвистик ходисани ўзбек тилида тарихий-илмий илдизга эга эканлигини исботлайди.

Демак, тилда учрайдиган ўзлашма қатлам лексикасини фақат этимологик тарихий илдизини исботлаш билан эмас, балки сўз ўзлашган даврдаги ижтимоий-сиёсий муҳит ва маънавий-маърифий тараққиёт, социолингвистик хусусиятлари каби масалаларини ҳам асослаш лозим бўлади. Натижада «Ўзбек филологияси» мутахассислигида «Социолингвистика» демасдан, «Ижтимоий тилшунослик» деган ном билан мазкур фаннинг диахрон ва синхрон аспектлардаги тараққиёт омилларини ўрганиш зарур бўлади. Балки мутахассислиги ўзбек тили бўлмаган талабаларга ўтиладиган фанни «Ўзбек тили» ёки «Давлат тили» демасдан «Ижтимоий тилшунослик масалалари» деган номда тил илмини мукамал ўргатса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Лекин бу масала мунозарали тарзда муҳокама этилгани билан ҳозиргача методик жиҳатдан ҳам, дидактик жиҳатдан ҳам ижобий натижага эришилмади. Чунки бу масалани айтмасдан бўлмайди. Сабаби атамашунослик масаласи ҳозир кунда жуда ҳам долзарб ҳисобланади.

MIR ALISHER NAVOIYNING O‘ZI O‘QIGAN MAKTABI HAQIDAGI XOTIRALARI

*Dilorom YULDASHEVA,
peagogika fanlari nomzodi, professor
Buxoro davlat universiteti
Email: diloromxon.68@mail.ru*

Resume: *The article analyzes the teaching of the Turkic language in educational institutions in the XIV-XV centuries. and the confession of Mir Alisher Navoi in this regard. The poet's recollections of the school he attended are the clearest evidence that the main ideology of the Timurid education system was Islamic, with Arabic and Persian languages.*

Key words: *Turkic language education, Timurid period, textbooks, attitude to the Turkic language in the 15th century.*

Temuriylar davriga kelib ta’lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islomiy, tili arabiy va forsiy bo’lganligidan dalolat beruvchi ayrim dalillar mavjud. Bu borada, shubhasizki, Mir Alisher Navoiyning o’zi o’qigan maktabi haqidagi xotiralari eng aniq manba sifatida e’tirof etilishi zarur. Mir Alisher Navoiy o’z davri maktablarini, undagi mashg’ulot mavzularini (saboqlarni) shunday eslaydi:

¹ Қаранг: Ишда абжад ҳисоби ва унинг дастурлаштирилган тилларга муқояса қилинган вариантларидан тўлиқ фойдаланилди.

“Yodima mundoq kelur bu mojaro, Kim tufuliyat chog‘i maktab aro, Kim chekar atfol marhumu zabun, Har tarafdan bir sabaq zabtig‘a un. Emgonurlar chun sabaq ozoridin, Yo “Kalomulloh”ning takroridin. Istaboyi tashxisi xotir ustod, Nazm o‘qiturkim, ravon bo‘lsun savod. Nasrdin ba‘zi o‘qur ham doston, Bu “Guliston” yanglig‘-u ul “Bo‘ston”. Menga ul holatda tab‘i bulhavas, “Mantiqut-tayr” aylab erdi multamas” [2, 258].

Mir Alisher Navoiyning yuqoridagi xotirasida ta‘limning 4 mavzusi ko‘rsatilgan. Bular: 1) “Kalomulloh” takrori; 2) “Guliston”; 3) “Bo‘ston”; 4) “Mantiqut – tayr”.

“Kalomulloh” arabcha, qolgan uch asar forsiy tilda yaratigan. Mir Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn”dagi isyoni, bizningcha, shunday tizim bilan bog‘liq.

XIV-XV asrlarda turkiy til ta‘lim o‘choqlarida o‘qitilganmi, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga qat‘iy javob ayta olmaymiz. Biroq Sayfi Saroyining «Gulistoni bit turkiy» asari, o‘sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Sa‘diy “Guliston”ining turkiy tildagi bayon-sharhi nimadan dalolat beradi? “Guliston”ning turkiy tildagi sharhi turkiyzabon yoshlarning bu asarni o‘z ona tillarida o‘qishlari uchun, albatta [7].

Temuriylar davri davlat va jamiyatda turkiy til mavqeyining yana ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Temuriylarning ko‘pchiligi o‘z asarlarini turkiy tilda yozdilar. Amur Temur tomonidan yozilib, bizgacha yetib kelgan yagona asar «Temur tuzuklari» mutaxassis olimlarning (A.A.Semyonov, Ch.Rye, E.G.Braun va b.) so‘zlariga qaraganda, boshda turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja‘far poshshoning kutubxonasida saqlangan deyiladi. Mir Abu Tolib al- Husaniy at-Turbatiyning forscha tarjimai ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslanganligi shubhasiz [5,6-7].

Mir Alisher Navoiydek dahoning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi va temuriylar himoyasida bo‘lgan holda o‘z asarlarini turkiy tilda yaratganligi ham temuriy hukmdorlarining bu tilga munosabatini yaqqol dalillaydi. XV asrga kelib “forsiy tilni bilish va shu tilda so‘zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo‘lgan “imtiyoz” va “bilimdonlik” belgisiga aylandi” [6,162]. Ayniqsa, temuriylar davrida bu an‘analarning avj olishi o‘zbek tili imkoniyatlarining ochilmay qolishiga sabab bo‘ldi. Shu davrda Mir Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining yalovbardori sifatida maydonga chiqdi. Mutafakkir, adib, olim A.Navoiyning nihoyatda ulkan xizmatlari hamma davrlarda ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Navoiyshunos olim X.Doniyorov ta‘kidlaganidek, A.Navoiy ijodini o‘rganish, targ‘ib etish adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish sohasidagi benazir xizmatlarini va tilshunoslik faoliyatini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganib chiqish ham shunchalik zarur va ahamiyatlidir [1,76].

Mir Alisher Navoiy ona tilining imkoniyat va qudratiga e‘tiborsizlik bilan qarovchilarga, uni qo‘pol, dag‘al til deb pastga uruvchilarga qarshi chiqib, badiiy va ilmiy asarlarini o‘zbek tilida yaratdi, ya‘ni o‘zbek tilining boy imkoniyatlarga egaligini ham badiiy, ham ilmiy jihatdan amalda isbotladi.

Shoir turk (o'zbek) tilini xazina, inson oyog'i yetmagan chamanzor, iforlaridan biror zot to'la bahramand bo'la olmagan gulzorga o'xshatadi. O'z davri ijodkorlari – nazm va nasr ustalariga forsiyda emas, eng avvalo, turkiy tilde – ona tillarida yoza olsinlar degan talabni qo'yadi va bu haqida shunday yozadi: «... *turk tilining jomeiyati muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va tab'larin o'z tillari turg'och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlarini bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytsalar erdi*» [3,118].

XV asrga kelib fors-tojik tilining grammatik qonun-qoidalarini ancha ishlangan, hatto ohangdosh so'zlar lug'ati ham tuzilgan edi. Binobarin, bu tilda ijod qilish adabiyot ahli uchun o'zbek tiliga qaraganda osonroq va qulayroq edi. Shoir Mir Alisher Navoiy o'zbek shoirlarining bu qobiqdan chiqqan olmayotganliklaridan, ya'ni bu odat ularning tabiatiga aylanib qolganidan va «*takallum ahli*»ga endigina qo'shilayotgan yoshlar ham «... *osonroq sari mayl*» qilayotganlaridan kuyinib yozadi. Shoir «*Muhokamatul-lug'atayn*»da «*tab' ahli*» avvalo o'z ona tilini chuqur bilishi kerak, degan haq fikrni aytadi hamda o'sha davr nazm va nasr ahlining o'z ona tilidan yiroqligini qoralaydi.

«*Bu ehtimolg'a xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtab'lari majmuyi sort tili bila nazm aytqaylar va bikkull turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi ayta olmag'aylar va aytsalar ham sort turk tili bilan nazm aytqondek fasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag'aylar va o'qisalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay*» [3,118].

Mir Alisher Navoiy bu bilan arab yoki fors tilini kamsitmaydi, aksincha, bu tillarga hurmat bilan qaraydi. Arab tili haqida shunday yozadi: «*Barchasidan arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at taz'yini bila mo'jiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qtur va so'zi sidq va ishi taslim - o'qdurkim, maliki alom jallo va aloning kalomi mo'jaz nizomi ul til bila nozil va rasulning ahodisi saodat anjomi ul lafz bila vorid bo'lubdur*» [3,106]. U fors-tojik tiliga bo'lgan hurmatni esa forsiygo'y shoirlarni lol qoldirgan forsiyda bitilgan bebaho asarlari bilan namoyon etdi. Alisher Navoiy turkiy tilni targ'ib qilish, bu tilda shoh asarlar yaratish bilan birga uni ta'lim o'choqlarida o'qitish uchun ommabop asar – maktablarda o'qitilishga mo'ljallangan, islom dini asoslari va farzlarini nisbatan sodda shaklda bayon etuvchi dars kitobi – «*Sirojul muslimin*»ni ham yozadi. Bu kitobda islom dini arkonlari, asosiy farzlari asosi bayon qilingan bo'lib, mazmun-mohiyati bilan XV asrda maktablarda keng ommalashgan «*Chor kitob*» va «*Farzi ayn*» bilan uyg'undir va turkiy zabon bolalarga ularni almashtira olardi. Mir Alisher o'z asarini shu maqsadda yozganligini ochiq bayon etmaydi, lekin islom asoslarini sodda shaklda turkiy tilda bayon qilish ayni shu maqsadlarni ko'zlaydi. Mir Alisherning: «*Nekim din ahlig'a bo'lg'ay zarurat... Bayon qilg'aymen andoq ravshan-u pok, Ki idrok etkay oni xayli a t r o k*» [4,274] kabi so'zlari ham shunga ishora qiladi, bizningcha. «*Sirojul muslimin*» butun mohiyati bilan o'rta asr maktab kitoblariga monanddir va o'quv qo'llanmasi vazifasini bajara olgan.

XV asrda turk (o'zbek) tilini rivojlantirishda Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Yusuf Amiriy, Tarxoniy, Majnuniy, Gadoiy kabi iste'dodli «turkiygo'y» shoirlarning alohida o'rni bor. Mir Alisher Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» tazkirasining ikkinchi bobida bunday shoirlar soni 16 nafardan oshganligi haqida ma'lumot beradi va zamonasining «turkiygo'y» shoirlarining nomini alohida hurmat bilan tilga oladi.

Mir Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili ravnaqi uchun kurashi haqida gapirganda ham shoh, ham shoir Husayn Boyqaroning xizmatlarini eslab o'tish joiz. Husayn Boyqaro shoh, buyuk homiy sifatida Mir Alisher Navoiy dahosining yuzaga chiqishga yordam berdi. Uning o'zbek adabiy tili ravnaqi uchun olib borgan kurashini qo'llab quvvatladi, ma'naviy yordamini ayamadi, do'stining yutuqlarini o'zining jang maydonidagi g'alabalaridan ustun qo'ya oldi. Husayn Boyqaroning o'zi ham turkiy tilda go'zal she'rlar bitdi, uning turkiy tilning mavqeyini ko'tarish maqsadida shu tilda devon tuzganligi ham ma'lum. Husayn Boyqaro nasriy risolasi (1485-yilda yozilgan)da Alisher Navoiyning turkiy til va adabiyoti rivojida buyuk xizmatini zavq-u shavq, ko'tarinki hayajon bilan olqishlaydi. U bilan zamondosh do'st bo'lganligidan iftixor qiladi, shukronalar keltiradi. Z.M.Bobur «karim ut-tarafayn» («ikki tomonlama ulug'») deb atagan bu shohning o'zbek adabiy tili ravnaqi borasidagi xizmatlari e'tiborga loyiqdir.

Adabiyotlar:

1. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
2. Навоий А. Лисонут тайр. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991.
3. Навоий А. Муҳокаматул луғатайн. 15 томлик. 14-том. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабий нашриёт, 1967.
4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 16-том. – Т.: Фан, 2000.

УЧИНЧИ УЙҒОНИШ РЕНЕССАНС ДАВРИ БУНЁДҚОРЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШДА НАВОИЙ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ

Равшанбек МАҲМУДОВ,
фалсафа фанлари номзоди, профессор
Гулистон давлат университети
(Ўзбекистон)
E-mail: ravshanbek.jalilovich@mail.ru

Аннотация: Алишер Навои - великий мыслитель, внесший неоценимый вклад в узбекскую литературу, духовность, просвещение и философию. Единственный труд ученого «Махбуб уль-кулуб» служит основой формирования современной молодежи как современных людей.

Ключевые слова: узбекская литература, духовность, просвещение, узбекская философия, этика, Третье Ренессанс.

Shoxida Siddiqova. Sitatalarning badiiy matnda ifodalanishi (Navoiy ijodi misolida).....

Умида Рашидова. Навоийнинг ибора қўллаш маҳорати.....

Элёр Бойманов. Навоий асарларида қўлланган саёхат билан боғлиқ атамалар.....

Behzod Rustamov . “Найрат ул-аброр”даги tasavvufiy qarashlar tahlili.....

Ойдин Хўжамуродова. Алишер Навоий асарларида *чечак* ва *гул* лексемалари ҳақида.....

Maftuna Axmedova. Alisher Navoiy g‘azallarida “*bilan*” ko‘makchisining ifodalanishi.....

Dilnoza Yo‘ldosheva. Iqbol Mirzoning “Samarqand sayqali” dramasida affiksial, leksik va leksik-affiksial pleonazmning qo‘llanilishi.....

Yulduz Rahmatova. Navoiy asarlarida badiiy modusning ifodalanishi.....

Bibisora Axtamova. Frazеologik birliklarning sotsiopragmatik xususiyatlari (Alisher Navoiy va Sadridin Ayniy asarlari misolida).....

Xurshida Toshova. O‘quvchilarga o‘xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlarini navoiy asarlari orqali tanishtirish.....

ЕТТИНЧИ ШЎБА: АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ

Бокижон Тўхлиев. Ҳазал шарҳлари билан боғлиқ айрим тажриба ва хулосалар.....

Сулаймон Иноятв. Поддержка и забота молодежи – историческая ценность нашего народа (на примере творчество Алишера Навои).....

Хўжамурод Жабборов. “Муҳокамат ул-луғатайн“ асарини ўрганишда янги педагогик технологияларнинг роли.....

Маҳмуд Равшанов, Илхом Эргашев. Алишер Навоий асарларида диний-маърифий ва таълим-тарбиявий мотивларнинг тавсифи.....

Dilorom Yuldasheva. Mir Alisher Navoiyning o‘zi o‘qigan maktabi haqidagi xotiralari.....

Равшанбек Маҳмудов. Учтинчи уйғониш ренессанс даври бунёдкорларини тарбиялашда Навоий ижтимоий-сиёсий қарашларининг ўрни.....

Xolbibi Qurbonova. Ona tili ta‘limi jarayonida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish masalalari.....

Алишер Убайдуллаев. Алишер Навоий ижодида бадий тасвир воситаларининг қўлланилиши.....

Maqsuda Sariboyeva, Muxtorjon Yo‘ldoshev. Alisher Navoiy ijodida ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....

Gulchehra Qo‘ylieva. Ulug‘ shoirning “oliyjanob xulq...”lari.....

Акмал Турсунов. Алишер Навоий ва замонавий таълим-тарбия масаласи.....

Lola Allayeva. Alisher Navoiy qarashlarida barkamol avlod orzusi.....

Yulduz Qurbonova. Alisher Navoiy asarlari tahlili orqali o‘quvchilarga milliy va umuminsoniy qadryatlarning singdirilishi.....

Иқбол Жабборова. Алишер Навоий – суғорма деҳқончилик ва ободончилик хомийси ва ташаббускори.....